



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/2

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 2, 2023
fevral

<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Elova D. D. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelish tarixidan (1920-1924-yillar)	7
	Orziyev M. Z. Amir Temurning Xitoy harbiy yurishining ehtimoliy natijalari xususida...	12
	Temirov F. U. Mustaqillik yillarida Sadriddin Ayniy ilmiy-adabiy merosining o'rganilishi	18
	Сейдаметова Г. У. Каракалпаки в источниках последней четверти XIX – первой четверти XX вв.	23
	Orziyev M. Z. “Xorazmlik” askarlarning Yaqin Sharq musulmon davlatlari faoliyati tarixidan	27
	Махмудов Д. А. Илк ўрта асрлар манбаларида самарқанд топонимининг келиб чиқиши хақида айрим маълумотлар	32
	Qudratov Sh.Yo. Buxoro amirligida jadidlarning tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangicha qarashlarining vujudga kelishi	38
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Xusanova Sh. I. Nonstandard language units in english	40
	Ruzieva S. Kh. Reflection of the characteristics of postmodern literature in the works of david mitchell	45
	Сайитов А. С. “Шахрошуб” Сайидо Насафи как источник восхвалению труда ремесленников	51
	Бабаева Ш. Б. Деятельность учителя по моделированию синтаксических понятий в обучении родного языка	54
	Fayzullaev M. B., Rakhimov M. M. The system of biological stative verbs meanings of uzbek language	58
	Сайдахметова Д. Х. Формирование двуязычия и многоязычия в Узбекистане	62
Kasimova R. R., Alimova V. B. “Kecha va kunduz” asarining bilvosita va bevosita tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlar	66	
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI		
Закирова М. Р. Школьное руководство: оценка эффективности деятельности директора общеобразовательной школы в Республике Узбекистан	73	
Tangriyev A. J. Yuqori malakali yunon-rum kurashchilarining maxsus-kuch tayyorgarligi xususiyatlari	81	
Исмагилов Д. К. Моделирование как эффективная организация подготовки футболистов на этапе спортивного совершенствования	86	
Rahmatov Sh. A. Jahonda zamonaviy oliy ta'lim muassasalar shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy shart-sharoitlar va omillar	90	

“KECHA VA KUNDUZ” ASARINING BILVOSITA VA BEVOSITA TARJIMALARIDA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLAR

Kasimova Ra'no Raxmatulloevna
doktorant (DSc), f.f.f.d. (PhD), dotsent. Buxoro Davlat Universiteti, ingliz adabiyotshunoslik kafedrasida

Alimova Vaziraxon Baxtiyorovna
Buxoro Davlat Universiteti, ingliz adabiyotshunoslik kafedrasida 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Dunyo miqyosida xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy hamkorligi kundan kunga kuchayib borayotgan davrni tarjimasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tarjima turli xalqlar orasida o'zaro aloqa yaratish, ularning hayotidan voqif bo'lish uchun juda zarur, chunki g'ofilik milliy mahdudlikka olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ham tarjima xalqlarni bir-biriga bog'lovchi xalqa, madaniyat va fanni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'pri deb hisoblanadi. Shuningdek, tarjima xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishi, ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, madaniyat, san'at va adabiyotning bir-biriga ta'siri hamda tillarning boyishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ham "tarjimashunoslik" termini mazmun - mohiyati, mustaqillikdan so'ng tarjimashunoslik sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar, bevosita va bilvosita tarjimalarda lingvokulturologik xususiyatlar haqida fikr yuritilgan, Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani o'zbek, rus va ingliz tilidagi variantlari misolida amaliy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, bevosita tarjima, bilvosita tarjima, tilmoch, aslyat, til vositalari, lingvokulturi xususiyatlar, madaniy tushunchalar.

LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS IN INDIRECT AND DIRECT TRANSLATIONS OF THE NOVEL «NIGHT AND DAY»

Rano Raxmatulloevna Kasimova
Doctoral student (DSc), Associate Professor (Ph.D.) Bukhara State University,
English literature department

Alimova Vaziraxon Bakhtiyorovna
Bukhara State University, English literature department, master's student

Abstract. Without translation, it is impossible to imagine an era when the political, economic, cultural, and scientific cooperation of people on a global scale is increasing day by day. The translation is crucial for establishing mutual communication between different people and getting acquainted with their life because a lack of information could lead to narrow-mindedness. Therefore, translation is a tool that connects peoples, develops and enriches culture and science, as well as a bridge that lays the foundation for mutual cooperation and solidarity. Translation also plays an essential role in establishing friendship and cooperation between people, accelerating scientific and technological development, influencing culture, art, and literature on each other, and enriching languages. Moreover, this article discusses the essence of the term "translation", and examines the changes and new approaches in the sphere of translation after the independence period, the linguacultural features of direct and indirect translation, in an example of the novel "Night and day" by Abdulhamid Cho'lpon.

Keywords: Translation, direct translation, indirect translation, translator, source text, expressive means, lingua-cultural peculiarities, cultural concepts.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ В КОСВЕННЫХ И ПРЯМЫХ ПЕРЕВОДАХ РОМАНА «НОЧЬ И ДЕНЬ».

Рано Рахматуллоевна Касимова

*Докторант (DSc), доктор философии по филологическим наукам, доцент,
Бухарский государственный университет, кафедра английской литературы*

Алимова Вазирахон Бахтияровна

*Бухарский государственный университет, кафедра английской
литературы, магистрант*

Аннотация. Без перевода невозможно представить себе эпоху, когда политическое, экономическое, культурное и научное сотрудничество народов в мировом масштабе возрастает день за днем. Перевод важен для налаживания взаимного общения между разными народами, для ознакомления с их жизнью, ведь непонимания может привести к отрицательным результатам. Вот почему перевод считается инструментом, соединяющим народы, развивающим и обогащающим культуру и науку, а также мостом, закладывающим основу для взаимного сотрудничества и солидарности. Также перевод играет важную роль в установлении дружбы и сотрудничества между народами, ускорении научно-технического развития, влиянии культуры, искусства и литературы друг на друга, обогащении языков. В этой статье рассматриваются термин «переводоведение», изменения и новые подходы в сфере перевода после независимости, лингвокультурные особенности прямого и косвенного перевода на примере романа Абдулхамида Чулпана «Ночь и день».

Ключевые слова: Перевод, прямой перевод, косвенный перевод, переводчик, исходный текст, экспрессивные средства, лингвокультурные особенности, культурологические концепты.

Kirish. Tarixiy voqealar oqibatida turli xalq va qabilalar dunyoning har tarafga tarqalishib, bir-biridan uzoqlashish, aloqalar uzilishi kuzatiladi. Biroq yangi muhit xalqning turmush tarzi, madaniyati va tiliga ta'sir etib, taraqqiydan boraveradi. Oradan ma'lum davr o'tishi bilan bir vaqtlar bir xalqdan paydo bo'lgan qabilalar tilida o'zgarishlar ro'y berib, bir qabila kishilari boshqa bir qabila kishilarining tilini yaxshi tushunmaydigan bo'lib qolishadi. Minglab asrlar davomida shu qabilalar o'z davlat tiliga, o'z madaniyatiga, o'z adabiyotiga ega davlatlarga aylangan bo'lsada, davrlaroshda davlatlar orasida aloqa o'rnatish zaruriyati tug'iladi. Natijada xorijiy tillarni o'rganishga, o'zga madaniyat hayoti bilan tanishishga urinishlar kuzatiladi. Shu o'rinda Jaloliddin Rumiyning til bilish xususidagi masalidan ko'chirmani fikrimiz dalili sifatida keltirib o'tishni joiz deb bildik:

Ham biyo, k-inro ba angure dihem”.

U arab Gufto: “Maozolloh lo,

Man inab xoham, pa angur, ey dago.

On yake k-az turk bud, Guft: “Ep ko'zum,

Man namexoham inab, xoham uzum.

On ki rumi bud, guft: «In qilro

Tark kun, xoham man istofilro» .

Masal turli fors, arab, turk va grek xalq vakillarining topgan pullariga sotib olmoqchi bo'lgan narsalari ustida tortishuvlari xususidadir. Jumladan, fors yigit “angur” olish istagini bildiradi, arab esa “inab” xoxlaydi, turk “uzum” desa, grek “istofil” xarid qilamiz, deb turib oladi. Ko'p tillardan xabardor bir yigit ularning jonlariga oro kirib, tortishuvlariga barham berish maqsadida topib olgan pullariga uzum sotib olib beradi. Qizig'i shundaki, tortishuvlarning zamirida uzum so'zini o'z

ona tilida bayon etgani sabab, bir-birini tushunmagan bu to'rt kishining aslida niyati bir, hammasi uzum mevasini xarid qilishni istagan. Demak, bir tilda gaplashadigan xalq uchun til – aloqa vositasi, turli xil tillarda so'zlashadigan davlatlar orasidagi tarjima – aloqa ko'prigi, degan xulosaga kelish mumkin.

“Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: she'r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi, “tilmoch”ning xizmatiga muhtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o'g'iriladi”. Tarjima oldiga ikkita talab qo'yiladi:

1. Asliyatta ifodalangan fikr tarjimada ham to'liq, aniq va ta'sirchan tarzda o'z aksini topishi zarur;

2. O'g'irilgan til me'yorlariga mos kelishi shart.

Tarjima jarayonida ikki holat yuz beradi:

1. Tarjima qilinayotgan asarni dastavval tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu ona tilida sodir bo'ladi – bunda tarjima unsurlari yuz beradi.

2. Tarjima qilish uchun asar o'g'irilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Bular: so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar .

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'iy nazar, bir tildan boshqasiga o'g'irilayotgan har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi asl nusxa tilidan xabari bo'lmagan kitobxonni o'sha asar matni bilan iloji boricha to'la, mukammal tanishtirish;

2. Tarjima qilish muayyan til vositalari bilan ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to'la ifoda etish.

O'zbek adabiyotining ingliz tiliga qilingan ilk tarjimalari Alisher Navoiy asarlari bilan bog'liq. E. Fitzjerald buyuk mutafakkirning “Lison ut-tayr” dostonini ingliz tiliga tarjima qilgan va u 1899 yil AQShning Boston shahrida nashrdan chiqqan. Shu asarning nasriy bayoni esa Kanadalik Garri Dik va o'zbek tarjimashunos olimi N.Qambarov hamkorligida ingliz tiliga o'g'irilgan. Robert Deveruks tomonidan “Muhokamat ul-lug'atayn” risolasi tarjima qilingan va 1966 yilda Aqshda kitob holida bosilib chiqarilgan. O'zbekiston “Vatan” jamiyati Alisher Navoiy hikmatlarini Margaret Bettli tomonidan qilingan tarjimasini chop etgan. 1961 yilda Toshkentda nashr qilingan “O'zbekiston gapiradi” nomli inglizcha to'plamda Navoiyning g'azallari, ruboiylari, hikmatlaridan namunalar hamda “Farhod va Shirin” dostonidan parchalar kiritilgan.

Yaqin-yaqingacha xorijiy tillardan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan xorijiy tillarga adabiyotlar rus tili orqali bilvosita tarjima qilingan. Aksar hollarda adib yoki shoirning yubileyi yoki adabiy kunlari, umuman olganda, biror sabab bilan tarjimaga qo'l solingan. O'zbekiston Respublikasi ilk prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 26 fevraldagi “O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida ‘Ijod’ fondini tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi oldiga “... xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlarini tarannum etilgan, milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati teran badiiy ifodasini topgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning munosib namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish hamda jahon axborot tarmog'ida keng targ'ib etish ” muhim vazifa qilib belgilangan. Bunday vazifa ijodkorlarni ilhomlantirib, adabiyotimizning badiiy pishiq asarlarini ingliz tiliga O'zbekiston Milliy universiteti tarjimashunoslik yo'nalishi bosh o'qituvchilari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda tarjima qilinishiga sabab bo'ldi. Bunday kitoblar sirasiga Abdulla Qodiriy “O'tgan kunlar”, Pirmqul Qodirov “Yulduzli tunlar”, O'tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”, Tilab Mahmud “Omonat dunyo”, To'lqin Hayit “Vafo malikasi”, Odil Yoqubov “Ulug'bek xazinasi”, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek “Navoiy”, Pirmqul Qodirov “Xumoyun va Akbar”, Tohir Malik “Shaytanat” (1-tom), Muhammad Ali “Sarbadorlar”, Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”, Cho'lpon “Kecha va Kunduz” asarlari kiradi .

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qarorida “...davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiylarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarining malakasini oshirishda ko'maklashish ” zarurligi

haqida uqtirdi. Shuning uchun ham hozirda bebaho asarlarimiz o'zbek tilidan xorijiy tillarga, ayniqsa ingliz, nemis, fransuz, koreys, rus, xitoy va boshqa tillarga bevosita tarjima qilinmoqda. Bu albatta biz uchun quvonarli holat, chunki asliyatdan qilingan tarjimalarda milliylik, xalqimizning urf-odat va an'analari aniqroq, yaqqolroq ko'rinadi.

Germaniyalik tarjimon Rolf Kloepfer "Tarjima – ijodiy yozuv, ammo tasodifiy ravishda qayta yozish emas; bu yozuvchining ijodidir" deb ta'rif keltirgan. Shunday ekan tarjima asliyat matnini shunchaki boshqa tilga o'girib qo'yish emas, agar shunday bo'lganda google translation – gugal tarjimon platformasi dunyodagi barcha tarjimonlar o'rnida qo'llanilgan bo'lardi.

Tarjima murakkab hodisa, unda tarjimon o'girayotgan asarining ruhi, xalqning madaniyati bilan tanishadi asl asar muallifining ijodini, mahoratini, uning yozish strategiyasini o'rganib chiqadi. Tarjima qilingan asarda o'zining izini qoldiradi. Asliyat matni tarjima tiliga bilvosita o'girilsa, asar badiiyatining o'zgarish darajasi yuqoriroq bo'ladi, chunki tarjima yo'qotish ham demakdir.

Odatda, asarlar o'zbek tiliga rus tili orqali yoki o'zbek tilidan rus tiliga so'ng boshqa jahon tillariga o'girilgani hammaga ma'lum. Jumladan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanini Abdulhamid Ismoil tomonidan rus tiliga o'girilgan «Ночь и день» asari bilan solishtirish tarjimadagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Rus tili vositasida ingliz tiliga ag'darilgan asarning bevosita o'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalari bilan o'zaro chog'ishtirish esa bevosita tarjimaning bilvosita tarjimadan ustunligini namoyon etadi.

Asliyatda: "Har yil keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi..."

Rus tili tarjimasida: «И снова сердца почувствовали радость наступающей весны. И снова ожила продрогшая природа, и в стволах деревьев побежала тёплая кровь...»

Ingliz tili tarjimasida: "The joy of spring which comes just once during a year, again started to fulfill hearts with happiness. Again, the nature got alive slowly..."

Yozuvchi tabiatni jonlantirib, uning dildiragan tanlariga iliq qon yugurtiradi. Tarjimon Abdulhamid Ismoil "dildiragan tanlariga" iborasini "продрогшая природа" tarzida ifodalab, "в стволах деревьев" so'z birikmasini qo'shib qo'yadi. Bunda tabiat bilan bir qatorda daraxtlar ham jonlantirilgani kuzatiladi.

Xuddi shu misralarning ingliz tili o'girmasida esa tarjimon "dildiragan qalblarda" so'z birikmasini tarjima qilishda qiynaladi va uni shunchaki tushurib qoldiradi, natijada "Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi" gapi o'zining ta'sir darajasini yo'qotib, oddiygina "Again, the nature got alive slowly" bo'lib qoladi. Ingliz kitobxonlari uchun bunday ifoda usuli tushunarli bo'lishi mumkin. Biroq asliyat manbai va tarjima variantlari solishtirilganda badiiy ifoda vositalarining turlicha tasvirlanishi yoki tushurib qoldirilgani kuzatiladi.

Asliyatda: "Erkakning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada ... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi".

Rus tili tarjimasida: «Прохладный ветерок резвится с женщинами, с их косами, платками, подолами платьев».

Rus tili tarjimasida asarning asliyat matnida shabadaning sho'xlik qilganini tasvirlash maqsadida keltirilgan "erkakning gullik do'ppisiga tegmay", "ko'klam nash'asi" singari tasvirlar tushirilib qoldirilib, shabadaning ayollar, ularning soch popuklari, ro'mollari, ko'ylak etaklari bilan sho'xlik qilgani ta'kidlangan. Vaholanki, manba til matnida shabada ayollar bilan oynagan, ko'klam bilan sho'xlik qilgan.

Ingliz tili tarjimasida: "The grasses started to blossom...the wind, which did not dare to touch the headwear of men and was playing with women's hair, was blowing... the wind was enjoying the pleasure of spring".

O.Muminov va A.Xamidovlar tomonidan qilingan ingliz tili tarjimasiga e'tibor qaratilsa, unda "gullik do'ppi, yalang ayollar, gajaklar, ro'mol popuklari, hazillashib o'ynagan salqin shabada, ko'klam nash'asi, sho'xlik" so'zlari tarjimadan butunlay yo'qolgan milliy ruhda yozilgan ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi parchasi shamol bahor rohatidan quvnayapti deb tarjima qilingan.

“Kecha va Kunduz” romani asosiy qahramoni Razzoq soʻfi obrazi xarakter xususiyatini yoritib beruvchi quyidagi misralarga eʼtibor qaratamiz:

Asliyatda: “Qish faslida boʻlsa askari kechasi uxlaydi. Bir siqim kun bor, uxlab oʻtkazsam Qashqardan ham olis qish kechasini qanday oʻtkazaman. Uyqu – umrning tanobi”.

Rus tili tarjimasida: «Зимой он обычно спит ночами. Он говорит так: «День столь маленький, что умещается в горсточку. Если я просплю его, то как тогда коротать долгую, как Кашгар, зимнюю ночь? Сон – это сила жизни!»

Ingliz tili tarjimasida: “Sufi is interesting human being. In summer he likes to stay in special building constructed for helmets only, but in winter he prefers to sleep long. He considers: “Sleep is a miracle that lengthens man’s life”.

Asliyatdagi “bir siqim kun” soʻz birikmasi kunlarning qish faslida qisqaligini ifodalab kelgan boʻlsa, rus tilida “День столь маленький, что умещается в горсточку”, yaʼni kun juda kichkina va u bir siqim (kaftga) sigʻadi deb oʻgirilgan, ingliz tilidagi tarjimada esa bu ibora tarjimonlarga qiyinchilik tugʻdirgan, natijada tushirib qoldirishga qaror qilingan. “Bir siqim kun” birikmasini shunchaki “день становится короче” deb berish ham mumkin edi. Shuningdek, “uyqu – umrning tanobi” iborasi rus tilida “Сон – это сила жизни” (Uyqu – umrning kuchi), ingliz tilida “Sleep is a miracle that lengthens man’s life” (Uyqu kishi hayotini uzayturuvchi moʻjiza) deb oʻgirilgan. Oʻzbek tilining izohli lugʻatidan tanob soʻzining oʻz va koʻchma maʼnolarini koʻrib chiqib, uning “yoʻl, hajm va shu kabi jihatdan qisqartmoq, kamaytirmoq” maʼnosi mavjudligi aniqlandi. Koʻrinib turibdiki, tanob leksemasining kuch tarzida oʻgirilishi fikrlar qarama-qarshiligini yuzaga keltirgan. Har ikkala tarjimada Razzoq soʻfi obrazi tushunarsiz yoritilgan, rus tilida soʻfi shundoq ham qisqa kunlarni uyquda oʻtkazsam, uzun kechalarni qanday oʻtkazaman deydiyu, oxirida uyqu – umrning kuchi deb oʻz fikriga oʻzi qarshi chiqadi. Biroq Qashqar toponimi qish kechalarining uzunligiga qiyoslanib, долгая, как “Кашгар, зимняя ночь” tarzida hech qanday izohlarsiz keltirilgan. Ingliz tilida esa yana maʼno oʻzgartirilishiga duch kelamiz, tarjimonlar vaziyatdan chiqish maqsadida asliyatda berilgan gaplarni maʼnosini oʻzgartirib ifodalashgan. Biroq yuqorida berilgan misollardan koʻrinib turibdiki, tarjimonlar yozuvchi qoʻllagan mazmun-mohiyat umuman teskari anglashilgan va tarjimada shu teskari mazmun ifoda topgan.

Asliyatda: “Otasi kirib kelgandan keyin Zebining koʻnglida oʻynagan iztirob va hayajonlar Razzoq soʻfining “Nima bu qiyomat!” degan qiyomatidan kuchliroq edi. Sovuq bir soʻfining nazdida, bu qadar vahimali koʻringan oddiy va tabiiy bir bolalik oʻyini qafas darichasining ochilishini kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qulf urilayotganini koʻrgan bir qushning iztirobidan kam boʻlarmidi?”

Ingliz tili tarjimasida: “The trouble exalted after her father’s coming was stronger than cry of Razzok Sufi, ‘cause that trouble was like the sorrow and fear of bird looking in man who closing it into box without any merry. Not only Zebi got afraid of him, but also Salti was frightened deeply of his cry. All of sudden sounded. Both were in good temper playing with each other and cruel Sufi interrupted their joy like sudden wind in the quiet garden, shivering and falling all leaves from the tree down so, sorrows occurred in their eyes expression.

Ingliz tilida berilgan tarjmani aslyiat bilan solishtirganimizda, undagi vaziyatni tasvirlab beruvchi “Sovuq bir soʻfining nazdida, bu qadar vahimali koʻringan oddiy va tabiiy bir bolalik oʻyini...” jumalari “cruel Sufi interrupted their joy like sudden wind in the quiet garden, shivering and falling all leaves from the tree down so” deb tarjimada berilgan, “qafas darichasining ochilishini kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qulf urilayotganini koʻrgan bir qushning iztirobidan kam boʻlarmidi?” esa “‘cause that trouble was like the sorrow and fear of bird looking in man who closing it into box without any merry”, yaʼni bezovtalik sababi qushning qaygʻu va qoʻrquv bilan uni qafasda qulflayotgan kishiga quvonchsiz qarashiga mengzatilgan. Undan tashqari tarjimonlar asliyatdagi maʼnoni kuchliroq ifodalash uchun unga Saltining iztiroblarini ham qoʻshadi. Yuqoridagi aslyiat va tarjima matnlarida tasvir vositasi turlicha boʻlsada, asl asrdagi fikr kitobxonga tushunarli qilib tasvirlangan. Ammo Razzoq soʻfining tabiatini, Zebining his-tuygʻularini yoritib beruvchi ushbu tasvirlar asarning rus tili tarjimasida tushirilib qoldirilgan. Holbuki, bunday tasvirlar Razzoq

soʻfining badjahl inson ekanligini, qizining esa begʻubor qalbida tugʻyon urayotgan hissiyotlarini koʻrsatadi.

Tarjimon oldida turadigan eng asosiy vazifalardan biri asliyatdagi badiiyatni imkon doirasida saqlab qolish boʻlsa, yana bir muhim vazfasi asardagi milliylikni tarjima tilida toʻgʻri talqin qilish hisoblanadi. Saltanat, Zebi va bir necha qizning aravada xirgoya qilgan “Yor-yor” qoʻshiqlari, oʻzbek xalqining milliy qoʻshiqlaridan biri sanaladi. Aravadagi qizlar Zebini qoʻshiq kuylashga koʻndira olmagach, uning yaqin dugonasi Salti “Yor-yor” qoʻshigʻini kuylashni boshlaydi va uni ruhlantiradi. Nikoh toʻyi marosimlarida uzatiladigan qizga atab kuylanadigan ushbu qoʻshiq hech bir qizni befarq qoldirmaydi.

Asliyatda:

Chakan koʻynak yarashar

Kelinchakka.

Chakan koʻynak yengiga

Tut qoqaylik...

Rus tili tarjimasida:

Платье к лицу невесты в печали.

Мы этому платью в рукав

нарвём шелковицу...

Asiyatda keltirilgan “Chakan koʻynak yarashar kelinchakka” gapini tarjimon rus tiliga “Платье к лицу невесты в печали” deb tarjima qiladi, yaʼni “chakan” soʻzining rus tilidagi tarjimasida deb “печаль” soʻzini beradi. Aslida “chakan” soʻzi Andijon viloyatining dialektiga xos boʻlib, u “yengi keng va bezatilgan, uzun, milliy koʻylak” ni anglatadi. Keng yengli uzun koʻylak kelinchakka yarashadi maʼnosida berilgan misra gʻam-gʻussaga botgan kelinga koʻylak yarashadi tarzida ifodalangan. Turmushga chiqayotgan qiz ota-onasining uyini tark etayotganidan, qizlikdan kelinlik ostonasiga qadam qoyayotganidan xafa boʻlishi tabiiy, biroq uning toʻyda kiyadigan chiroyli kiyimini gʻamli damlarida kiyiladigan koʻylak deb berish erish tuyuladi. Ingliz tili tarjimasida esa bu milliy qoʻshiq tushurib qoldiriladi, faqatgina qoʻshiq boshlanishidan oldin Salti xirgoyi qilgan qoʻshiqning birgina satri tarjima qilingan xolos:

“Without waiting for girl’s reply Salti begin: The longest longest tow rope...” shu berilgan qisqa misrada argʻamchi soʻzi mashinalarni shatakka olish uchun ishlatiladigan ruscha trost soʻzi orqali oʻgirilgan, holbuki, argʻamchi bolalar oʻynaydigan ingichka ip.

Aravakash Oʻlmasjon kuylagan qoʻshigʻidan nolib, quvnoqroq qoʻshiq kuylashini talab qilgan qizlar, “Biz suv boʻlmasa tayammumga yaraydigan ashulachilardan” degan javob olishadi. Yigitning bu javobidan aravada shunday qoʻshiqchi turganda mening kuylashimga hojat ham yoʻq degan ishorani tushunamiz, ingliz tilidagi tarjimada bu misralar “Singing for me is only hobby: nothing else” deb tarjima qilingan. Aslida tayammum soʻzining maʼnosi suv boʻlmaganda tuproq bilan poklanish deganidir, biroq mazkur parchani tarjima qilishda tarjimonlar chuqurlashib oʻtirmasdan, shunchaki boʻsh vaqtimda shugullanadigan mashgʻulotim maʼnosida tarjima qilib, qisman boʻlsada kitobxonga mazmun ochib beriladi. Asliyat matnidagi badiiyat, milliylik batamom yoʻqoladi. Oʻlmasjonning xirgoyisini ifodalab kelgan. Yosh yigit koʻnglidan chiqayotgan samimiy soʻzlarning qogʻozga oʻrab, imo-ishoralar orqali yetkazishi asliyat matnining lingvokulturologik jihatini namoyon etadi. Rus tilida xuddi shu mazmun-mohiyatni anglatuvchi «На безрыбье и рак рыба» singari ekvivalenti mavjud, ammo tarjimon bu soʻzlarni tushurib qoldirishni afzal koʻrgan.

“Kecha va kunduz” asaridagi qizlarning qishloqqa yetib kelib, aravadan tushishi, ularni qoʻriqlashga kelgan kampirning aravada uxlab qolishi hamda Zebining qariyani ohistalik bilan uygʻotish bilan bogʻliq voqealar tasvirida xalqimizga xos milliy xususiyat namoyon boʻladi.

Asliyatda: “Zebi kampirni sekingina uygʻotadi: Enajon, turing, kelib qoldik!

Enajondan xabar boʻlmadi. Zebi oʻsha past ovoz bilan yana bir bor uygʻotdi. Enaxon hali ham jim edi. Aravaning oldi tomonidan kelib aravakash ham yordamlashdi”.

Ingliz tili tarjimasida: “While girls were getting off from the cart Zebi had awaken the old woman. -Granny, wake up, we got to the place! However, the granny was still quiet. Zebi had repeated previous actions again. Now, after no reply to Zebi’s attempt, the cart-driver hurried to help.”

Rus tili tarjimasida: «Зеби попыталась её тихонько разбудить: Матушка, вставайте, приехали! Матушка молчала. Подошёл арбакеш и стал помогать».

Zebining qariyaga enajon deya murojaat qilishi bevosita uning tarbiyasi bilan bog'liq. Xalqimizda har bir oilada tarbiyalanayotgan qiz va o'g'il bolaga o'zidan kattani hurmat, kichikni izzat qilish, xushmuomala bo'lish, sabrlik o'rgatiladi. Mana shu enajon murojaati ingliz tili tarjimasida ingliz xalqining madaniyati nuqtai nazardan "granny" deb, rus tili tarjimasida rus madaniyati nuqtai nazardan kelib chiqqan holda "матушка" tarzida o'girilgan.

Asardagi Miryoqub va Noyib to'raning suhbatiga e'tibor qaratamiz.

Aslyatda: "Ha, qo'ying, to'ra, odamni xafa qiladigan gaplarni gapirmaylik. "Ertaning g'amini eshak yeydi. Ertaga xudo poshsho egam..."

Rus tili tarjimasida: «Хорошо, господин, давайте не будем о том, что нас печалит. «Ишак скорбит по завтрашнему дню», - говорят у нас. Завтра даст бог наш белый царь».

Ingliz tili tarjimasida: "Yes, you are right, tura. Let's we do not make us upset with bad news. Tomorrow king is only God."

Aslyatda keltirilgan "Ertaning g'amini eshak yeydi", "Ertaga xudo poshsho egam" singari frazeologik birliklar rus tilidagi «Ишак скорбит по завтрашнему дню», «Завтра даст бог наш белый царь» muqobillari yordamida tarjima qilingan.

Ingliz tilida esa "Ertaning g'amini eshak yeydi", frazeologik brikmasi "Tomorrow king is only God" deb o'girilgan, bu bilan tarjimonlar ertaga nima bo'lishi faqat xudoga ayyon demoqchi bo'lib, so'zma-so'z o'girdanda ertaning qiroli faqat Olloh, degan jumlaning qo'llashadi.

Xulosa. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi ruhiyat, ijtimoiy munosabatlar, xarakterlar to'qnashuvi, siyosiy qarashlar, mafkuraviy-axloqiy holatlar romanning badiiyatini namoyon etadi. Aslyat tilidagi har qanday asar boshqa tilga tarjima qilinar ekan, o'zga til xususiyatlaridan kelib chiqib, asar badiiyatining muayyan darajada o'zgarishiga olib keladi, o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi va natijada yo'qotishlar yuz beradi. Bu kabi muammolarni hal etish tarjimondan katta bilim va mahorat talab etadi. Mohir tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga bevosita o'girilgan o'zbek asarlarining bilvosita tarjimalari bilan qiyoslab tahlil va talqin qilinishi tarjimashunoslik sohasidagi yangicha yondashuvlarni va nazariyalarni boyitish barobarida o'zbek millati, madaniyati, adabiyoti va an'analari bilan xorijlik kitobxonlarni tanishtirish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1292-son 2010 yil 26 fevraldagi "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-1676453?ONDATE=28.07.2012>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117- son 19.05.2021 yildagi "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondini tashkil etish to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/-5426736>

3. Abdurahobov M. (2021). O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, – 235 b.

4. Cho'lpon A. (2000). Kecha va kunduz. – Toshkent.: Sharq, – 141 b.

5. Jaloliddin Rumi. (1963). Az kitobi "Hikoyatkhoi khalqii" Masnavi*. – Dushanbe: Nashriyoti davlati Tojikiston, – 345 s.

6. Muminov O.M., Khamidov A.A. (2014). Night and Day. – Toshkent.: O'zbekiston, – 183 b.

7. Rolf K., Shaw Ph. (1981). Intra- and Intercultural Translation // Poetics Today. – Duke University Press, – Vol. 2, No. 4 – pp.29-37.

8. Salomov G. (1978). Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, – 198 b.

9. Salomov, G. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, – 235 b.